

AL -FARG'ONIY ILMUY ME'ROSI VA UNING JAHON MADANIYATIDA TUTGAN O'RNI

Yorqulova Mohinur Shokir qizi

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti
Madaniyat va san'at muassasalarini tashkil etish
hamda boshqarish yo'nalishi 2-kurs talabasi*

Anotatsiya: Ushbu maqolada Ahmad al- Farg'oniyning nafaqat yurtimiz uchun balki, butun dunyoga qurilish ishlariga ,ilm yo'lida qo'shgan hissasi haqida so'z boradi.

Аннотация: В данной статье рассказывается о вкладе Ахмада аль-Фергани в строительство и науку не только нашей страны, но и всего мира.

Abstract: This article talks about Ahmad al-Farghani's contribution to construction works and science not only for our country, but also for the whole world.

Kalit so'zlar: "Bayt-ul hikma ", sferalar, Ravda oroli, YUNESKO, mikrofilmlar, Miqyos jadid.

Buyuk qomuschi olim,o'z davrining muhim gidro - qurilish ishlariga rahbarlik qilgan iste'dodli muxandis. Ahmad al- Farg'oniyning nomi jahon ilmiy jamiyatiga, dunyo madaniyatiga yaxshi tanish.U Bog'doddagi Ma'munning "Bayt-ul hikma "akademiyasi yorqin yulduzi sifatida taniqli olimdir. Ahmad al- Farg'oniy hayotlik davridayoq arab dunyosi olimlari orasida o'z iste'dodi bilan tanildi va shuhrat qozondi.Uning XVI asrdagi buyuk asari "Astronomiya elementlari"ning lotin tiliga tarjima qilishi bilan ma'lumu-mashhur bo'ldi.

Ahmad al-Farg'oniyning 8 asari ma'lum. Shu bilan birga, ta'kidlab o'tishimiz kerakki, Rizoulloh Ansoriyning dalolat berishicha, uning qoldirgan asarlari soni o'n bitta. Bu kitoblarning har birida astronomiyaga oid yangi, qimmatli fikrlar aytilgan. Ularning ayniqsa ikkitasi jahon astronomlariga ma'lum va mashhurdir. Biz bu o'rinda al-Farg'oniy asarlarining mazmuni bilan chegaralanamiz. «Astronomiya ilmi asoslari» — «Samoviy harakatlar va umumiylar astronomiya kitobi» («Kitob fiy harakat as-samoviya va javomi' ilm an-nujum»). Risolaning asl qo'lyozmalari matni bir xil bo'lsa-da, besh nom ostida saqlanib kelmoqda, ya'ni: «Al-Majistiyga bag'ishlangan falakiyot risolasi», «Falak sferalari sababiyati», «Al-Majistiy haqida», «Ilm al-hay'a» deb ham ataladi.Yana bir kitobi — «Asturlab yasash haqida kitob»(«Kitob al-komil fiy san'a al-asturlob»). Al-Farg'oniyning qo'lyozmalari Angliya, Frantsiya, AQSh, Marokash, Misr, Hindiston, Germaniya,Eron(Tehron), Rossiya(Peterburg) va boshqa bir qancha mamlakatlarning yirik ilmiy kutubxonalarida asrlar bo'yli saqlanib kelmoqda. Al-Farg'oniy kitoblari 1145 yildan shu vaqtgacha, ya'ni XII asrdan XXI

asrgacha lotin, italyan, frantsuz, nemis, ingliz, ibroney, ispan, arab, fors tillarida Angliya, Belgiya, Germaniya, Gollandiya, bir necha bor nashr etilgan.

Ahmad al-Farg‘oniyning hayoti va faoliyati arab xalifalarining eng eng gullagan davriga to‘g‘ri kelgan. Markazlashgan bu mamalakatda qishloq xo‘jaligi va hunarmandchilik rivojlanma bordi. Savdo-soliq, dengiz yo‘li orqali boshqa mamalakatlar bilan iqtisodiy aloqa shakkilanib borib, yangidan yangi shaharlar qurilishi avj oldi.

Shuningdek, astronomik bilimlarning rivojlanishida islom dinining roli ham juda katta rol o‘ynadi. Diniy tadbirlar, xususan namoz vaqtlarini aniq belgilash, diniy marosimlarning (ro‘za, xayit) muddatlarini aniqlash ham buyuk kashfiyotlar yaratilishiga zamin yaratdi.

Ana shunday zaruriy ehtiyojlar natijasida Bog‘dodning “Bayt-ul hikma “sida boshlangan bahs- munozaraning boshida buyuk yurtdoshimiz Ahmad al-Farg‘oniy turibdi. Ahmad al-Farg‘oniy faqat fundamental fanlar bilan emas, balki muxandislik faoliyati bilan ham shug‘ullangan. Aynan shu hol sabab, uning hayotiga tegishli biografik xarakterdagi ayrim ma’lumotlar saqlanib qolgan. Ahmad al-Farg‘oniy tarjimasi holiga doir ishonchli detallardan biri uning Ravda oroliga o‘rnatilgan nilometrni ta’minlashga jalb etilish va Trik daryosiga o‘tkazilgan sug ‘orish kanalini qurishga rahbarlik qilishi 861 yil ekanligi aniqlandi. O‘rtalashtiruvchi qator qo‘lyozma manbalarida Ahmad Farg‘oniy Ravda oroliga o‘rnatilgan nilometrni ta’mirlagani haqida yozilgan.

Ahmad al-Farg‘oniyning hayoti haqidagi ta’limotlar juda kam bo‘lganligiga qaramay, o‘rtalashtiruvchi qator qo‘lyozma manbalarida shartqda uning nomi mashhur bo‘lgan. Jumladan, G.Matvievskaya, I.Dobrovolskiy, M.Xayrullaev, N.Senrgeyeva kabi olimlar hozirgacha uning ilmiy ishlarini o‘rganib kelmoqdalar.

Ahmad Farg‘oniyning al-Ma’mundan keyin, Mutavakkil zamonida (846-862) Nil daryosining suvini o‘lchaydigan yangi o‘lchov asbobini (Miqyos jadidni) ixtiro qilishi uning shuhratiga yana shuhrat qo‘shdi.

Afsuski, shuhratni butun olamga tanilgan, Muhammad Xorazmiylar bilan bir qatordan joy olgan buyuk bobokalonimizning ulug‘ kashfiyotlari haqida ma’lumotlarning hozirga qadar oz Vatanida va o‘z ona tilida yo‘qligi, mahrum qilib turibdi. O‘z xalqini uning merosidan Ahmad Farg‘oniyning ijodi ham boshqa allomalarimiz kabi ko‘p qirrali bo‘lganligida hech shak- shubha yo‘q.

Ahmad Farg‘oniyning bosh asari “Astronomiya elementlari” asari juda sodda darslik bo‘lib, unda murakkab geometrik shakillar va matematik formulalar, hisoblashlar, keltirilmagan. Bu asar hamma tushunadigan va oddiy xalq tilida yozilgan.

Ahmad Farg‘oniy “Falakkiyot asoslari” nomli ilmiy-nazariy jihatdan mukammal kitobi bilan shuhrat qozondi. Akademik T.N.Qoriniyoziy so‘zlari bilan aytganda, o‘sas asar “astronomik bilimlarning o‘ziga xos qomusidir”. Yana bir narsani ta’kidlash lozimki, “Falakkiyot asoslari” nomli asarida muallifning

va boshqa olimlarning shu sohadagi namunali ishlari va ularning muvaffaqiyatlari asosli ravishda izchil yoritilgan. Shuningdek, Ahmad Farg‘oniy tomonidan muqaddam ahli ilm tadqiq ishlari qiyosiy o‘rganilgan. Demak, bu risoladan Ahmad Farg‘oniyga qadar yashab ijod etgan olimlar asarlari to’g’risida ham tegishli ilmiy va nazariy ma’lumotlar olish mumkin.

Ahmad Farg‘oniyning har qanday maqtovlarga muhtoj bo‘lmagan asarlari o‘zidan keyingi dunyo olimlariga qo‘llanma sifatida xizmat qildi va xizmat qilmoqda. Alloma tavalludining 1200 yilligini nishonlash YUNESKOning 1999- yildagi tadbirlari rejasiga kiritildi. Shuni hisobga olib 1998 yil al-Farg‘oniy tavalludining 1200 yilligini nishonlash haqida Vazirlar Mahkamasining qarori e’lon qilindi (27 noyabr, 1997). Sharqshunos olimlarimiz Ashraf Ahmedov va Ubaydulla Uvatov Al-Farg‘oniy asarlarining qo’lyozmalari, mikrofilmlarini xorijiy mamlakat kutubxonalaridan oldirib keldilar. Ularni o‘zbek tiliga tarjima qilib, keng xalq ommasiga yetkazish olimlarimiz oldida turga eng dolzarb va sharaflı vazifadir.

O‘ylaymizki, Ahmad al-Farg‘oniy o‘zining falakiyot ilmiga oid asarlari bilan G‘arbda astronomiya maktabining shakllanishi jarayoniga katta ta’sir ko‘rsatdi. Uning osmon jismlari harakatlariga bag‘ishlangan risolalaridan foydalangan g‘arblik olimlar keyinchalik astronomiya sohasida katta kashfiyotlar qilib, olamshumul nazariyalar yaratishdi. Al-Farg‘oniy kabi buyuk bobokalonlarimizning nomlarini va asarlarini tiklashimiz milliy qadriyatlarimizni anglashda, o‘zligimizni idrok etishimizda ibratli saboq bo‘ladi. Bu esa, o‘z navbatida, xalqaro hamjamiyatda o‘zimizning munosib mavqeimizni egallashimizda muhim o‘rin tutadi. Biz ham keljakda ajdodlarimizdan o‘rnak olib Yangi O‘zbekistonda yangi burilish yasashimiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/maqolalar/ahmad-al-farg-oniyning-fanniy-olami>
2. <http://bilimnur.zn.uz/sample-page/ahmad-al-fargoniy/>
3. <https://muhaz.org/ahmad-al-fargoniy-orta-osiyolik-mashxur-mutafakkir-reja-ahmad.html>